

№	Yo'nalish kodi	Ta'lim yo'nalishi nomi	Kunuzgi	Sirtqi	Egallaydigan kasbi
15	60811000	O'simliklar karantini va himoyasi	+	+	Entamolog-Fitopotolog

Yo'nalish tavsifi

O'simliklarni himoya qilish (ekin turlari bo'yicha) bakalavriat ta'lim yo'nalishi – fan va qishloq xo'jali ishlab chiqarish sohasi yo'nalishi bo'lib, yer, suv, energetik va moddiy-texnika resurslaridan samarali foydalanishni amalga oshirish maqsadida o'simliklar himoyasi va karantini soha mutahassislarini tayyorlash, o'simliklar himoyasi sohasida amalga oshiriladigan jarayonlarni optimallashtirish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish usul va uslublari, o'simliklar himoyasi va karantini bo'yicha kasbiy faoliyatida amalga oshiriladigan jarayonlar majmuasini qamrab oladi.

Yuqorida keltirilgan kasbiy faoliyat sohasining o'simliklarda kasallik qo'zg'atuvchilari, zararkunandalari va begona o'tlar, qishloq xo'jalik mahsulotlarini omborxonalarda zararlovchi zararli organizmlar, o'simliklarni uyg'unlashgan himoya qilish sohasidagi qo'llaniladigan kimyoviy, biologik va boshqa ekologik xavfsiz kurash vositalari, o'simliklarni himoya qilish sohasida qo'llaniladigan ishlab chiqarish jarayonlari, texnika va texnik asbob-uskunalari ob'ektlarida agrosanoat majmui korxonalar, tashkilotlar, fermer xo'jaliklarida mehnat faoliyatini tashkil etish, ishlab chiqarishni tashkil etish va boshqaruv sohasida ishni tashkil etish va boshqaruv, bajarilayotgan faoliyati bo'yicha ish rejasini tuzish va uni bajarish, nazorat qilish va amalga oshirilgan ishlarning natijalarini baholash, yechilayotgan ilmiy muammolar va ilmiy-tadqiqot natijalari bo'yicha tavsiyalar va ishlanmalarni amaliyotga tatbiq etish kabi kasbiy faoliyati turlari bilan shug'ullanadi.